

KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHNING INTEGRATSIYALASHGAN AMALIY MEXANIZMI VA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH INDEKSI (MOKI): METODOLOGIK YONDASHUV

Sapayev Doston Ulug‘Bek o‘g‘li

Oriental universiteti magistranti

Annotatsiya. *Maqolada umumta‘lim maktablari o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirishning «maktab – oliy ta‘lim muassasasi – korxona» integratsiyasiga asoslangan to‘qqiz bosqichli amaliy mexanizmi ishlab chiqilgan. Mexanizm tashkiliy, iqtisodiy va marketing konturlaridan iborat bo‘lib, unda kasbga yo‘naltirish xizmati STP–7P–CRM strategik marketing modeli asosida loyihalanadi. Tadqiqotning asosiy ilmiy natijasi — «Maktab–OTM–korxona integratsiyasi samaradorligi indeksi» (MOKI) bo‘lib, u yettita subindeksni og‘irlik koeffitsiyentlari asosida birlashtiradi: $MOKI = 0,10D + 0,15O + 0,20K + 0,10M + 0,15S + 0,15T + 0,15N$. Indeks uchta shartli hudud modeli bo‘yicha aprobatasiyadan o‘tkazilib, agrar hudud uchun 31,1, sanoat hududi uchun 41,0 va pilot klaster uchun 56,7 ball qiymatlari olindi. Natijalar indeksning hududlar o‘rtasidagi tafovutni o‘lchash va zaif bo‘g‘inni aniqlash quvvatiga ega ekanini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *integratsiyalashgan mexanizm, kasbga yo‘naltirish, MOKI indeksi, dual ta‘lim, STP–7P–CRM modeli, natijaga asoslangan moliyalashtirish, ta‘lim marketingi.*

Annotation. *The article develops a nine-stage practical mechanism of career guidance for general secondary school students based on «school – university – enterprise» integration. The mechanism comprises organisational, economic and marketing contours, with the career guidance service designed according to the STP–7P–CRM strategic marketing model. The principal scientific result is the School–University–Enterprise Integration Effectiveness Index (MOKI), which combines seven weighted sub-indices: $MOKI = 0.10D + 0.15O + 0.20K + 0.10M + 0.15S + 0.15T + 0.15N$. The index was tested on three conditional regional models, yielding 31.1 points for an agrarian region, 41.0 for an industrial region and 56.7 for a pilot cluster. The findings demonstrate the index's capacity to measure interregional disparities and identify the weakest link of the system.*

Keywords: *integrated mechanism, career guidance, MOKI index, dual education, STP–7P–CRM model, results-based financing, education marketing.*

KIRISH

Kasbiy rivojlanish nazariyasida kasb tanlash bir martalik hodisa emas, balki butun hayot davomida davom etadigan jarayon sifatida talqin qilinadi (Super, 1980). Bu yondashuv kasbga yo‘naltirish tizimini alohida tadbirlar majmuidan uzluksiz boshqariladigan mexanizmga aylantirishni taqozo etadi. Zamonaviy mehnat bozorida kasblar tarkibining tez o‘zgarishi (Nedelkoska & Quintini, 2018) va ish beruvchilarning ta‘lim jarayoniga jalb

etilishi kasbiy tanlov barqarorligini oshirishi (Musset & Kurekova, 2018) bunday mexanizmning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

O'zbekistonda kasbga yo'naltirishning barcha zarur elementlari me'yoriy jihatdan shakllantirilgan: Vazirlar Mahkamasining 78-son qarori maktab va tadbirkorlik subyektlari hamkorligini (Vazirlar Mahkamasi, 2025), PF-190-son Farmon kasbiy ta'limning yagona boshqaruv tizimini (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2025a), PQ-316-son qaror esa 2026/2027-o'quv yilidan uzluksiz kasbga yo'naltirish va individual kasbiy tavsiya mexanizmini belgilagan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2025b). Yangilangan «O'zbekiston — 2030» strategiyasida natijaviy ko'rsatkichlar aniqlangan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2026). Biroq mazkur elementlarni bir o'quvchining kasbiy rivojlanish trayektoriyasi doirasida bog'laydigan yaxlit mexanizm va uning samaradorligini o'lchovchi integral asbob mavjud emas.

Tadqiqotning maqsadi “maktab – OTM – korxona” integratsiyasiga asoslangan kasb-hunarga yo'naltirishning integratsiyalashgan amaliy mexanizmini loyihalash hamda uning samaradorligini baholovchi integral indeks metodikasini ishlab chiqishdan iborat.


MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqotda uchta usul birgalikda qo'llanildi. Birinchisi - me'yoriy-huquqiy hujjatlar va rasmiy statistik hisobotlarning hujjatli tahlili; ular mexanizmning huquqiy va resurs chegaralarini aniqlash uchun xizmat qildi. Ikkinchisi - tizimli-strukturaviy modellashtirish: mexanizm o'quvchini markazga qo'yuvchi to'qqiz bosqichli zanjir sifatida loyihalandi. Uchinchisi - indeksli baholash: subindekslar tanlab olinib, ularga og'irlik koeffitsiyentlari ekspert usulida berildi. Koeffitsiyentlarni keyingi bosqichda ierarxiyalarni tahlil qilish (AHP) usuli yordamida aniqlashtirish nazarda tutiladi (Saaty, 1980).

Kasbga yo'naltirish xizmatining marketing konturi ta'lim muassasalari uchun strategik marketing nazariyasi (Kotler & Fox, 1995) va xizmatlar marketingining kengaytirilgan 7P kompleksi (Booms & Bitner, 1981) asosida loyihalandi.

NATIJALAR

Muallif talqinida integratsiyalashgan amaliy mexanizm o'quvchining individual qobiliyati va kasbiy qiziqishini aniqlash, ularni hududiy mehnat bozori ehtiyoji bilan solishtirish, OTMning akademik hamda korxonaning ishlab chiqarish muhitida kasbiy sinovdan o'tkazish, individual kasbiy trayektoriyani shakllantirish va natijalarni kuzatishni ta'minlovchi tashkiliy, iqtisodiy, pedagogik, raqamli va marketing vositalarining o'zaro bog'langan tizimidir (1-rasm).



1-rasm. Integratsiyalashgan amaliy mexanizmning umumiy sxemasi

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1-jadval. Mexanizm bosqichlari va tomonlar vazifalarining taqsimoti

Bosqich	Maktab	OTM	Korxona	Natija
1. Mehnat bozori diagnostikasi	ma'lumotdan foydalanish	prognozda ishtirok	kadrlar ehtiyoji	kasblar xaritasi
2. Individual diagnostika	asosiy ijrochi	metodik yordam	kompetensiya profili	kasbiy profil
3. Kasbiy axborot	kasbiy maslahat	mutaxassisliklar	mehnat sharoiti	ongli tasavvur
4. Akademik kasbiy sinov	yo'naltirish	asosiy ijrochi	texnologik topshiriq	akademik asos
5. Amaliy kasbiy sinov	muvofiglashtirish	metodik yordam	asosiy ijrochi	real tajriba
6. Mentorlik	maktab maslahatchisi	akademik mentor	professional mentor	asoslangan tanlov
7. Kompetensiya ni baholash	natijani qayd etish	ekspert baholash	amaliy baholash	tasdiqlangan ko'nikma

Bosqich	Maktab	OTM	Korxona	Natija
8. Individual yo'l xaritasi	muvofiglashtiri sh	ta'lim variantlari	bandlik imkoniyati	kasbiy trayektoriya
9. Tracer-monitoring	ma'lumotlar bazasi	ta'lim davomiyligi	bandlik natijasi	samaradorlik bahosi

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

O'quvchi va ota-onaning kasbiy tanlovi ko'pincha kasbning jamiyatdagi obro'si va shakllangan stereotiplar ta'sirida yuz beradi. Shu sababli mexanizmga STP–7P–CRM strategik marketing konturi kiritildi (2-rasm). Uning vazifasi kasbni «sotish» emas, balki asosli qaror uchun to'liq va taqqoslanadigan axborot berishdir; kasbiy tanlovda o'quvchining erkinligi ustuvor saqlanadi.



2-rasm. Kasbga yo'naltirishning STP–7P–CRM strategik marketing modeli

Manba: Kotler va Fox (1995) hamda Booms va Bitner (1981) yondashuvlari asosida muallif tomonidan moslashtirilgan.

2-jadval. Kasbga yo'naltirish xizmatining 7P marketing kompleksi

7P elementi	Kasbga yo'naltirishdagi mazmuni	Integratsiyadagi amaliy vosita
Product	Kasbiy rivojlanish trayektoriyasi	Diagnostika + OTM sinovi + korxona tajribasi + sertifikat
Price	Vaqt, transport va imkoniyat qiymati	Bepul kasbiy sinov, stipendiya, transport qo'llab-quvvatlash
Place	Xizmat ko'rsatiladigan muhit	Maktab, OTM laboratoriyasi, korxona, raqamli platforma
Promotion	Kasblar haqida kommunikatsiya	«Kasb pasporti», kasb festivali, ochiq laboratoriya kuni


7P elementi	Kasbga yo'naltirishdagi mazmuni	Integratsiyadagi amaliy vosita
People	Tanlovga ta'sir qiluvchi mutaxassislar	Maslahatchi, professor, talabam-mentor, korxona mutaxassisi
Process	Yo'naltirish jarayonining algoritmi	Diagnostika → sinov → maslahat → tanlov → monitoring
Physical evidence	Kompetensiyaning ko'rinadigan isboti	Laboratoriya, uskuna, portfolio, loyiha, sertifikat

Manba: Booms va Bitner (1981) modeli asosida muallif tomonidan moslashtirilgan.

Mexanizm samaradorligini natijaviy baholash uchun "Maktab – OTM -korxona integratsiyasi samaradorligi indeksi» (MOKI) ishlab chiqildi. Indeks yettita subindeksni og'irlik koeffitsiyentlari asosida birlashtiradi:

$$\text{MOKI} = 0,10D + 0,15O + 0,20K + 0,10M + 0,15S + 0,15T + 0,15N,$$

bunda D - kasbiy diagnostika va individual profilning shakllanganlik darajasi; O - OTMdagi akademik kasbiy sinov qamrovi; K - korxonadagi amaliy kasbiy sinov darajasi; M - mentorlik qamrovi; S - kompetensiya va sertifikatlash natijasi; T - maktabdan keyingi ta'lim trayektoriyasining uzluksizligi; N - tanlangan yo'nalishda davom etish ulushi. Barcha subindekslar 0–100 oralig'ida foizli ko'rsatkich sifatida hisoblanadi, natijaviy indeks esa 0–100 ball oralig'ida qiymat oladi.



3-rasm. MOKI indeksi tarkibiy elementlarining og'irlik koeffitsiyentlari

Manba: ekspert baholash asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Eng yuqori og'irlik (0,20) korxonadagi amaliy kasbiy sinovga berildi. Bu tanlov empirik asosga ega: oldingi tahlillar aynan maktab bosqichidagi korxona bilan aloqani tizimning eng zaif bo'g'ini sifatida ko'rsatgan edi. Subindekslarni hisoblash uchun indikatorlar to'plami 3-jadvalda keltirilgan.


3-jadval.MOKI indeksi subindekslari va ularni hisoblash indikatorlari

Belgi	Subindeks	Hisoblash indikatori	Og'irlik
D	Kasbiy diagnostika	Individual kasbiy profilga ega o'quvchilar ulushi	0,10
O	OTM integratsiyasi	OTM laboratoriyasi yoki mini-kursida qatnashganlar ulushi	0,15
K	Korxona integratsiyasi	Kasbiy sinov yoki job-shadowingdan o'tganlar ulushi	0,20
M	Mentorlik	Mentor biriktirilgan o'quvchilar ulushi	0,10
S	Kompetensiya	Kasbiy sertifikat olgan bitiruvchilar ulushi	0,15
T	Ta'lim trayektoriyasi	Tanlangan yo'nalishda ta'limni davom ettirganlar ulushi	0,15
N	Yakuniy natija	Bir yildan keyin yo'nalishini saqlaganlar ulushi	0,15

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Indeksning amaliy qo'llanuvchanligini tekshirish maqsadida uchta shartli model — agrar hudud, sanoat hududi va taklif etilayotgan pilot klaster bo'yicha hisob-kitob amalga oshirildi. Subindeks qiymatlari amaldagi statistikadan olingan nisbatlar asosida ekspert yo'li bilan modellashtirildi (4-rasm, 4-jadval).

MOKI: agrar – 31,1; sanoat – 41,0; pilot – 56,7



4-rasm. MOKI indeksi subindekslarining uchta shartli model bo'yicha taqqoslanishi
Manba: muallif hisob-kitoblari (shartli modellashtirish).

4-jadval. MOKI indeksining shartli modellar bo'yicha hisob-kitobi

Belgi	Og'irlik	Agrar	Hissa	Sanoat	Hissa	Pilot	Hissa
D	0,10	70	7,00	85	8,50	92	9,20
O	0,15	25	3,75	40	6,00	60	9,00
K	0,20	15	3,00	25	5,00	45	9,00
M	0,10	12	1,20	20	2,00	38	3,80
S	0,15	22	3,30	30	4,50	48	7,20
T	0,15	48	7,20	55	8,25	65	9,75
N	0,15	38	5,70	45	6,75	58	8,70
MOKI	1,00	—	31,1	—	41,0	—	56,7

Manba: muallif hisob-kitoblari. Subindeks qiymatlari 0–100 shkalada shartli modellashtirilgan.

Hisob-kitob natijalari indeksning ikki muhim analitik xususiyatini ko'rsatadi. Birinchidan, u hududlar o'rtasidagi tafovutni yagona raqamda ifodalaydi: agrar va sanoat hududlari orasidagi farq 9,9 ball, pilot klaster bilan agrar hudud orasidagi farq esa 25,6 ballni tashkil etadi. Ikkinchidan, indeks tizimning zaif bo'g'inini aniq ko'rsatadi: uchala modelda ham eng past qiymatlar K (korxonadagi amaliy sinov) va M (mentorlik) subindekslariga to'g'ri keladi, ya'ni resurslarni birinchi navbatda shu yo'nalishlarga jamlash zarur.

MUHOKAMA

Taklif etilayotgan mexanizm amaldagi siyosatga muqobil emas, balki uning maktab–OTM–korxona darajasidagi mantiqiy davomi hisoblanadi. Muhim jihat shundaki, uning tashkiliy yadrosi hududiy kasbiy integratsiya kengashi va yangi byurokratik tuzilma sifatida emas, PF-190-son Farmon asosida allaqachon faoliyat yuritayotgan hududiy tadbirkorlar kengashlari negizida umumta'lim maktablari vakillarini kiritish orqali shakllantirilishi mumkin. Bu joriy etish xarajatlarini sezilarli kamaytiradi.

Iqtisodiy jihatdan mexanizm ikki tamoyilga tayanadi:

- natijaga asoslangan moliyalashtirish va “resurs yaratish”dan ko'ra “mavjud resursni ulashish”. Birinchi tamoyilga ko'ra mablag' o'tkazilgan tadbirlar soniga emas, MOKI subindekslarining o'sishiga qarab ajratiladi; ikkinchisiga ko'ra har bir maktabda qimmat laboratoriya tashkil etish o'rniga hududdagi OTM va korxona bazasidan belgilangan kunlarda foydalanish mexanizmi qo'llaniladi. Bu yondashuv kasbiy ta'limda kapital xarajatlarni optimallashtirishning xalqaro amaliyotiga mos keladi (Musset & Kurekova, 2018).

Mexanizmni joriy etish to'rt bosqichda amalga oshirilishi taklif etiladi; davrlashtirish amaldagi siyosat kalendariga bog'langan (5-rasm).

MEXANIZMNI JORIY ETISH BOSQICHLARI



5-rasm. Integratsiyalashgan mexanizmni 2026–2030-yillarda joriy etish bosqichlari

Manba: PQ-316-son qaror va «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi muddatlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida ikki jihatni qayd etish lozim. Birinchidan, og‘irlik koeffitsiyentlari ekspert usulida belgilangan bo‘lib, ular AHP yoki empirik regressiya tahlili asosida aniqlashtirilishi zarur (Saaty, 1980). Ikkinchidan, aprobatsiya shartli modellar bo‘yicha o‘tkazildi; indeksning haqiqiy prognoz quvvatini baholash uchun pilot hududlarda real ma’lumotlar to‘planishi talab etiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijasida quyidagi aniq ilmiy xulosalarga kelindi.

Birinchidan, kasb-hunarga yo‘naltirishning integratsiyalashgan amaliy mexanizmi ishlab chiqildi. Uning yangiligi shundaki, maktab, OTM va korxona alohida maqsadga ega uchta tashkilot emas, o‘quvchining yagona kasbiy trayektoriyasini ta’minlovchi to‘qqiz bosqichli zanjirning bo‘g‘inlari sifatida loyihalanadi va har bir bosqichda tomonlarning vazifasi aniq taqsimlanadi.

Ikkinchidan, kasbga yo‘naltirish xizmatiga STP–7P–CRM strategik marketing konturi kiritildi. Bu kasbiy tanlovga stereotiplar ta’sirini kamaytirish va istiqbolli kasblarni haqqoniy pozitsiyalash imkonini beradi.

Uchinchidan - tadqiqotning asosiy ilmiy natijasi sifatida MOKI integral indeksi metodikasi taklif etildi. Indeks yettita subindeksni og‘irlik koeffitsiyentlari asosida birlashtirib, kasbga yo‘naltirish samaradorligini «tadbirlar soni» emas, natija ko‘rsatkichlari orqali o‘lchash imkonini beradi.

To‘rtinchidan, indeksning uchta shartli model bo‘yicha aprobatsiyasi uning tashxisiy quvvatini tasdiqladi: MOKI qiymatlari 31,1 dan 56,7 ballgacha farqlandi va uchala modelda ham eng past subindekslar korxonadagi amaliy sinov (K) hamda mentorlik (M) bo‘yicha qayd etildi. Demak, integratsiyani rivojlantirishda ustuvor investitsiya yo‘nalishi — maktab o‘quvchilari uchun korxona bazasida kasbiy sinov va mentorlik tizimini kengaytirishdir.

Amaliy tavsiya sifatida MOKI indeksini 2026/2027-o'quv yilidan turli iqtisodiy profildagi pilot hududlarda sinovdan o'tkazish, 2027/2028-o'quv yilidan esa uni texnikumlar milliy reytingi va natijaga asoslangan moliyalashtirish mexanizmiga bog'lash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Booms, B. H., & Bitner, M. J. (1981). Marketing strategies and organization structures for service firms. In J. H. Donnelly & W. R. George (Eds.), *Marketing of services* (pp. 47–51). American Marketing Association.
2. Kotler, P., & Fox, K. F. A. (1995). *Strategic marketing for educational institutions* (2nd ed.). Prentice Hall.
3. Musset, P., & Kurekova, L. M. (2018). Working it out: Career guidance and employer engagement (OECD Education Working Papers No. 175). OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/51c9d18d-en>
4. Nedelkoska, L., & Quintini, G. (2018). Automation, skills use and training (OECD Social, Employment and Migration Working Papers No. 202). OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/2e2f4eea-en>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025a). Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida (PF-190-son Farmoni, 23-oktabr). <https://lex.uz/docs/-7792559>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025b). Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida (PQ-316-son qarori, 23-oktabr). <https://lex.uz/uz/docs/-7793420>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2026). «O'zbekiston — 2030» strategiyasi (PF-21-son Farmoni bilan tasdiqlangan yangi tahriri, 16-fevral). <https://lex.uz/pdf/8050769>
8. Saaty, T. L. (1980). *The analytic hierarchy process: Planning, priority setting, resource allocation*. McGraw-Hill.
9. Super, D. E. (1980). A life-span, life-space approach to career development. *Journal of Vocational Behavior*, 16(3), 282–298. [https://doi.org/10.1016/0001-8791\(80\)90056-1](https://doi.org/10.1016/0001-8791(80)90056-1)
10. Vazirlar Mahkamasi. (2025). Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarni kasb-hunarga o'qitishda tadbirkorlik subyektlarini jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida (78-son qarori, 11-fevral). <https://lex.uz/docs/7373893>